

**YAPON TILIDA FRAZEOLOGIZMLARNING STILISTIK
AHAMIYATI**

Nuraliyev Sardor Faxriddin o'gli

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: yapon tili yo'nalishi talabasi.

sardornuraliyev344@gmail.com

ANNOTATSIYA: *O'zbek va yapon tillari iboralarga boy tillar hisoblanadi.*

Bu nafaqat til boyligini shu millatning turmush tarzini kundalik hayoti nutq madaniyatidagi o'ziga xoslikni ko'rsatib turadi. Ushbu maqolada yapon tilida frazeologik birliklarning yasalihi yo'llari haqida fikr yuritilgan. Yapon tilida idiomalar asosan gap bo'laklari hamda so'z va so'z birikmalari orqali yasaladi. Quyida misollar orqali yapon tilidagi frazeologik birliklarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari berilib, stilistik tahlil qilindi.

KIRISH

Yapon tiliga oid idiomatik birliklarning bugungi holatiga yetishida bir necha asrlik tarixiy jarayonlar tajribasi muhim hisoblanadi. Qaysidir davrda o'z ma'nosida qo'llanilgan aynan bir gap davrlar o'tishi bilan yagona ma'noga ega bo'lgan idioma – iboralarga aylanib qolgan. Bu jarayon esa idiomatik birliklar ustida juda katta izlanishlar olib borish kerakligini taqozo qiladi va hozirgi kunlarda ham bir qator tilshunos olimlar o'z izlanishlarini olib bormoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oxirgi 10 yillar mobaynida tilshunoslikda frazeologizmlarni o'rganishga bo'lgan ulkan qiziqishni alohida ta'kidlashimiz lozim. Zero, aynan **frazeologizmlar** "... milliy – madaniy birliklarni ifodalab, ma'lum xalqning afsona – rivoyatlari va kundalik hayoti davomida ishlatilini, o'ziga xos umumiy lingvokulturaviy mentalitetni vujudga keltiradi". (В.Н.Телия. 1996:c56)

Frazeologizmlarda milliy – madaniy xususiyatlarning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, frazeologizmlar o'z semantikasida uzoq davrlik millat



madaniyatining rivojlanish jarayonini aks ettiradi, milliy ko'rsatma va qolip, etalon va arxiteplarni qayd qiladi va uni avloddan – avlodga yetkazib beradi.

Yapon tili frazeologizmlari fan tarmog'i sifatida rus olimlari S. A. Bikova, T. M. Gurevich, N. V. Malishevlar tomonidan o'rganilib kelingan. Shuningdek, oxirgi vaqtlarda yapon tilidagi somatik (inson tana a'zolari orqali yasalgan) frazeologiyalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu eski yapon tili bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunda insonda kechadigan ichki va tashqi hissiyotlar uning tana a'zolari orqali ifodalangan. Bundan tashqari somatik frazeologizmlar har bir tilde uchraydi va o'zini "til sistemasining asosiy bo'g'ini va milliy mentalitet determinizmining yanada yorqin va qiziqarli namunasi sifatida qaraydi".(П.А.Титова, Н.В.Мальшев. 2012: с140)

Yapon tili frazeologizmni tadqiq qiluvchi olimlar, qoidaga asosan, til materiallaridan so'z birliklariga to'g'ri keladigan, lekin ma'no jihatidan bo'linmas birliklarni yetarlicha aniq belgilab berishmoqda. Bu ta'limot frazeologizmlarni so'z birikmalaridagi ma'no bilan taqqoslaydi. Bu birliklar orasida qadimiy til birliklari bilan aloqasini saqlab qolgan leksemalar ham mavjud bo'lib, ulardagi aloqa qoidadan tashqari ekanligini ko'rishimiz mumkin (А.И. Смирницкий, О.С. АХМАНОВА). Shuning uchun ham turli ko'rinishdagi frazeologizmlarga nisbatan "ideomatiklik"(frazeologik atamalar o'rtasidagi ajralmas semantik aloqani taqazo etadi) va "barqaror" atamasi ishlatilindi. (Е.Н.Левченко. 2012: с 142-151)

Bir qancha rus olimlarining ilmiy ishlarida yapon tilida mavjud bo'lgan idiomalarni quyidagi guruhlariga bo'lgan holda o'rganilgan.

1. Gap bo'laklari orqali yasalgan idiomalar.

Bu guruhga mansub bo'lgan gap bo'laklari ya'ni, fe'l, sifat va otlar yapon tili tilshunosligida ideomalarning yasallishida muhim o'rin egallaydi. Gap bo'laklari mavjud idiomalarning ko'pchiligi tarkibida qatnashadi. Shuningdek, gap bo'laklari bilan yasaladigan ideomalarning o'zi ham tarkiban 3 guruhga ajratilib o'rganiladi. Ular qaysi so'z turkumi orqali yasalganligi bilan bog'liq bo'lib, ideomalarni o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega:

1) Fe'l orqali yasalgan ideomalar.



Dastavval, fe'l orqali yasaladigan ideomalar haqida gapiradigan bo'lsak, bu usul ideomalarning ichida eng ko'p tarqalgan bo'lib, "Ot+fe'l" ko'rinishida shakllanadi. Fe'l orqali yasalgan ideomalarning yana bir xususiyati shundan iboratki, fe'lning grammatik birliklar bilan bog'lanishi oson bo'lganligi sababli ideomalarni yanada go'zallashtiradi va boyitadi. Masalan:

頭にくる (Atama ni kuru) — So'zma- so'z "boshiga kelmoq" deb tarjima qilinadi. Ushbu ibora dastlab insonning jahli chiqqanida miyaga qon kelishiga nisbatan ishlatilgan. "Jahli chiqmoq" degan ma'noni anglatadi va o'zbek tilidagi "g'azabi qaynagan" iborasiga tengdir.

口に合う (Kuchi ni au) — So'zma- so'z tarjima qilinganda "og'izga to'g'ri kelmoq", ya'ni taom mazasining "inson o'g'ziga to'g'ri kelishi" (yoqishi) kelib chiqadi. "Mazali" degan ma'noda ishlatiladi. O'zbek tilidagi "ta'mi tilni yoradi" iborasiga to'g'ri keladi.

目を引く (Me wo hiku) o'z ma'nosida tarjima qilinganda — "ko'zni tortmoq" bo'lib, biron bir ish qilayotgan paytda beixtiyor boshqa birovning qilayotgan ishiga ko'zimiz tortilib qoladi. Ushbu ibora ham "diqqatini tortmoq" degan ma'noda ishlatiladi. O'zbek tilida ham aynan shunday shaklda keladi.

2) Sifat orqali yasalgan ideomalar.

Sifat orqali frazeologik birliklarning yasalishi ham yapon tilshunosligida mavjud bo'lib, ammo qolgan idioma yasovchi gap bo'laklariga taqqoslaganda bir muncha kam qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Bu usulda ideomalarning yasallishida "Ot+sifat" qoidasiga bo'ysunadi va o'rnatilgan tartibdagina ideomalar yasaladi. Yuqorida mulohaza qilganimiz fe'ldan qay jihatdan farq qilinishini ustida fikr yuritish davomida ot va sifat bog'lanish jarayonini amalga oshiruvchi bog'lovchi qo'shimchalarning o'zgarishi natijasida har bir ideomaning ham ma'nosi o'zgaririshi ma'lum bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida bunday ideomalarning keng tarqalishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan:

顔が広い (Kao ga hiroi) — asl ma'noda "yuzi keng" deb tarjima qilinsada, "tanishlari ko'p", ya'ni ko'pchilik yaxshi biladigan va ko'pchilikni taniydigan



insonga nisbatan ishlatilindi va o'zbek tilidagi "otning qashqasidek" iborasining ma'nodoshidir.

面の皮が薄い (Men no kawa ga usui) — so'zma-so'z "terisi yupqa" deb tarjima qilinadi, ya'ni ham narsaga tezda teri harakati o'zgaradigan, "uyatchan" ma'nosida ishlatiladi. Bu ibora o'zbek tilida ham aynan shunday ko'rinishda uchraydi.

口が軽い (Kuchi ga karui) — "sir saqlay olmaydi" degan ma'noda ishlatilindi, o'zbek tilidagi "og'zi bo'sh" iborasining ma'nodoshi hisoblanadi. Yapon tilidan ham to'g'ridan to'g'ri tarjima qilganda "o'g'zi bo'sh" tarzida tarjima kelib chiqadi.

口が堅い (Kuchi ga katai) — *Sir saqlay oladigan*; 口が硬い — bu ibora 口が軽い iborasining antonimi hisoblanadi. O'zbek tilidagi "og'ziga mahkam" iborasiga ma'nodosh.

3) *Ot orqali yasalgan ideomalar.*

Ot orqali yasaladigan ideomalar sifatdan ham kamroq uchraydi. Bu usulda "Ot+ot" ko'rinishida ideomalar yasalishi belgilangan. Asli xitoy tilidan kelib chiqqan ierogliflari ideomalarni yasashda asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu usulni yasalishi juda murakkab tuzilgan bo'lib, bu malakaviy ishda kerakli jihatlarigina ochib berishga harakat qilindi.

後の祭り (Ato no matsuri) — o'z ma'nosi "keyinning bayrami" deb tarjima qilinsada, "juda kech" ya'ni "o'tib ketgan" ma'nosida ishlatiladi. O'zbek tilidagi "poyezd o'tib ketdi" yoki "hayitdan keyin" iboralarining ma'nodoshi hisoblanadi.

目の薬 (Me no kusuri) — o'z ma'nosida "ko'z dorisi" deb tarjima qilinadi, ammo "juda kamyob" ma'nosida ishlatilindi. Chunki ko'z dorilari o'sha paytda juda kerakli va kamroq hisoblangan. O'zbek tilidagi "anqoning urug'i" iborasiga ma'nodoshdir.

頭のはち (Atama no hachi) — "gapning qisqasi", "gapning lo'ndasi" degan ma'nolarda ishlatilindi. So'zma-so'z tarjima qilinganda esa "boshning arisi" degan tarjima kelib chiqadi, ya'ni arining nishiday o'tkir bir so'zning miyada paydo



bo'lishidan ishlatila boshlangan va bora-bora qotib qolgan birikma hisoblanadi. O'zbek tilida esa “ gapning po'st kallasi” degan varianti ham mavjud.

2. So'z va so'z birikmalari bilan yasalgan ideomalar;

Bu guruhdagi ideomalarning asosini so'z va so'z birikmalari tashkil etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, yapon tilidagi mavjud bo'lgan ideomalarning asosini ushbu guruhga oid ideomalar tashkil etadi. So'z va so'z birikmalari orqali yasalgan idiomalarning asosini 4 xil uslub tashkil etgan:

1) Inson tanasiga oid so'zlar orqali yasalgan ideomalar

Yapon tilida, ayniqsa, kundalik hayotda ko'p qo'llaniladigan narsalar, odamning tanasiga oid bo'lgan so'zlar, qisqa qilib aytganda insonni atrofini o'rab turgan narsalarni ifodalovchi so'zlar va so'z birikmalari ideomalarning ko'payishida muhim o'rin egallaydi. Bunday ideomalar ko'pligining sababi oddiy bo'lib, inson o'z hayotini o'tkazar ekan, kundalik suhbatlarni olib boradi, bu suhbatlar natijasida o'ziga yangi ma'lumotlar oladi va suhbatdoshiga ma'lumotlar tarqatadi. Shu jarayon butun dunyo tilshunosligida juda muhim hisoblanadi. Ya'ni bu jarayonda tillardagi katta o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida asrlar davom etishini nazarda tutadigan bo'lsak, tilning shakllanishiga olib keladi. Aynan biz qo'llaydigan frazeologik birliklarda ham odam tanasiga oid bo'lgan so'zlarning ko'pligi ham shunga borib taqaladi. Qaysidir davrda o'z ma'nosida qo'llanilgan aynan bir gap davrlar o'tishi bilan yagona ma'noga ega bo'lgan ideoma, iboralarga aylanib qoladi. Shuning uchun ham dunyoning qaysi tilini olib qarasangiz ham inson tanasiga oid bo'lgan ideoma va frazeologizmlar nihoyatda ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aynan yapon tilida ham bunday ideomalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, ko'z, burun, og'iz, bosh, soch, yuz singari odam tanasiga oid so'zlar yapon tilida ko'p uchraydi.

Quyida odam tanasiga oid bo'lgan so'zlardan tashkil topgan ideomalarga misollar keltirilgan:

鼻が高い (Hana ga takai) — “ kekkaygan” ma'nosida ishlatiladi. Kekkaygan odam boshini baland tutib yurganda bevosita uning burni ham oldingi pozitsiyasiga



nisbatan balandroqdek tuyuladi. O'zbek tilidagi "burni ko'tarilgan" iborasining sinonimi hisoblanadi.

口をはさむ – gapirishga shaylanib turilgan paytda ishlatilindi va o'zbek tilidagi "og'iz juftlamoq" iborasining ma'nodoshi hisoblanadi.

頭が低い – o'z ma'nosida "boshi past" degani bo'lsada, aslida "kamtarin" ma'nosida ishlatilindi. Kamtarin odam esa boshi quyi holda yuradi. O'zbek tilidagi "oyog'i yerdan uzilmagan" iborasiga sinonimdir.

ごますり (gomasuri) – so'zi nuqul xushomad qiladigan kishiga nisbatan qo'llaniladi. O'zbek tilidagi "laganbardor" ideomasiga to'g'ri keladi.

腰が抜ける (Koshi ga nukeru) – *Hayron qolish yoki qo'rquv ta'sirida o'rnidan tura olmasligi;*

目を疑う (Me wo utagau) – *Ko'rayotgan narsa haqiqat ekanmi deb hayron bo'lmoq;*

口を挟む (Kuchi wo hasamu) – *Gapirishga hozirlanmoq;*

頭が低い (Atama ga hikui) – *Kamtar;*

2) His-tuyg'ularga oid so'zlar orqali yasalgan idiomalar.

Shu bilan birga, his-tuyg'ularga oid so'zlar bilan birlashib yasaladigan ideomalar ham mavjud bo'lib, bunda "気" (ki) ieroglifi eng ko'p bu turdagi ideomalarni yasash funksiyasini bajaradi. Yapon tilshunoslik to'g'risidagi qo'llanmalarda "気" (ki) ieroglifi ruhiy va hissiy tuyg'uni ifodalashda yetakchi so'z sifatida izohlanadi.

気が重い (ki ga omoi) – bu iboraning aynan tarjimasi "xarakteri og'ir" ibora bilan shakl jihatidan bir xil bo'lsada, mazmun jihatidan "asabiylashgan" ma'nosida ishlatilindi. O'zbek tilidagi "to'nini teskari kiyib olgan" iborasining ma'nodoshi bo'ladi.

気を失う (ki o ushinau) – so'zma – so'z tarjima qilinganda, "ruhdan ayrilmoq" degan ma'noni anglatadi. Ammo "hushidan ketmoq" ma'nosida



qo'llaniladi. Bu yerda "ruh" – insonning ongli harakatdagi holatini bildiradi. O'zbek tilidagi "kapalagi uchib ketmoq" yoki "hushidan ketmoq" iboralariga tengdir.

気を配る(ki o kubaru) – so'zma-so'z "ruhni taqsimlash" deb tarjima qilinadi. Lekin "e'tiborli bo'lmoq" ma'nosida ishlatilinadi. Ya'ni o'z diqqatini, ongli harakatini bir holatning bir necha qismlariga qaratishi nazarda tutilgan. O'zbek tilidagi "ko'zini kattaroq ochmoq" iborasining ma'nodoshi hisoblanadi.

3) Kelib chiqishi xitoycha ieroglifli so'zlar va so'z birikmalari orqali yasalgan ideomalar.

Bu guruhda kelib chiqishi xitoycha ieroglifli so'zlar va so'z birikmalari bilan ideomalar yasaladi. Bunday iboralarni yasalishida "ot+ot" va "ot+fe'l" qoidalariga asoslanadi. Bunday iboralarni yapon tilshunosligida juda ko'p uchratishimiz mumkin. Quyida bir necha iboralarni misol tarzda berish bilan ierogliflar orqali yasalgan idiomalar haqida mulohaza qilinadi.

鬼に金棒 (Oni ni kanabou) – *Qo'shimcha kuch;*

案の定 (An no jou) – *Har doim;*

赤の他人 (Aka no tannin) – *Mutlaqo begona;*

我慢せず (Gaman sezu) – *Sabr-toqatsiz;*

先見の明 (Senken no akira) – *Ehtiyotkor;*

4) Chet tilidan o'zlashgan so'zlar orqali yasalgan ideomalar;

Yapon tiliga Yevropa va boshqa dunyo tillaridan kirib kelgan so'zlarni katta miqdorda ko'rishimiz mumkin. Aynan shu sababli frazeologik birliklarda ham o'zlashma so'zlar orqali yasalgan holatlarni uchratishimiz mumkin. Bu guruhda ideoma yasalishi "chet tilidan o'zlashma ot+yapon tilidagi fe'l" ko'rinishida bo'ladi. Ayniqsa, ingliz, fransuz, portugal va golland tillaridan o'zlashgan so'zlar orqali yasalgan idiomatik birliklarni ko'p uchratishimiz mumkin.

Quyida o'zlashma so'zlar orqali yasalgan ideomalarning bir nechitasi misol sifatida keltirib o'tilgan:

ピンからキリまで (Pin kara kiri made) – *Biror bir ishni eng boshidan oxiriga qadar;*



- スタートを切る (Sutato wo kiru) — *Biror bir ishni boshlamoq;*
- イニシアチブをとる (Inishiachibu wo toru) — *Boshqarmoq;*
- バトンを渡す (Baton wo watasu) — *O'z ishini qo'l ostidagi odamga topshirmoq;*
- ストップをかける (Sutoppu wo kakeru) — *Biror bir jarayonni to'xtatmoq;*
- スポットライトをかける (Supottoraito wo kakeru) — *Barchaning e'tiborini qozonmoq;*
- ベストを尽くす (Besuto wo tsukusu) — *Qo'ldan kelgan barcha ishni qilmoq;*
- トーンが落ちる (Ton ga ochiru) — *Fikrning kuchsiz aytilishi;*
- ガードが甘い (Gado ga amai) — *Barchani o'z yaqini deb ko'rish;*
- パイプ通す (Paipu wo toosu) — *Ikki fikr mujassamlashtirish;*
- オブラートに包む (Oburato tsutsumu) — *Kuchli xavotirga tushmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan gapirmoq;*
- ワンクッション置く (Wankushshon wo oku) — *Shok holatini yumshatish maqsadida arqonni uzuntashlamoq;*
- ブレーキをかける (Bureki wo fumu) — *Boshqa oldinga harakatlana olmaslik;*

XULOSA

Biz yuqorida yapon tilidagi iboralarning yasallish yo'llari va ularning stilistik ahamiyatini ko'rib chiqdik. Yapon tilida idiomalar yasallishida gap bo'laklarinin ahamiyati juda katta. Ular har bir idiomalar tarkibiy qismi sanaladi. Idiomalar orasida eng ko'p tarqalgan usul bu fe'l orqali yasallish bo'lib, bu fe'lning grammatik birliklar bilan bog'lanishi oson bo'lganligi sababli ideomalarni yanada go'zallashtirib boyitadi. So'z va so'z birikmalari orqali yasallishda esa, inson tana a'zolariga oid so'zlar, his-tuyg'uni ifodalovchi so'zlar va asosi xitoy ierogliflarida tuzilgan so'zlar, chet tilidan olingan so'zlar muhim ahamiyat kasb etishini misollar orqali izohlab o'tdik.

**ADABIYOTLAR**

1. Mamatov A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari” Fan: 1991
2. Matchonov E. “yapon frazeologizmlari” Toshkent. 2009.
3. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” 1978.
4. Hamroyev M.A. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar majmuasi” 2005.
5. Yo‘ldoshev B. “Frazeologiya tarixidan lavhalar”.-Samarqand: So‘g‘diyona, 1998.
6. Soliyeva M “Chet tili tarixi ” fanidan ma‘ruzalar matni.
7. Шанский Н.М. “Стилистика русского языка”. – Ленинград.: Просвещение. 1989.
8. Языковая ситуация в Японии (общая характеристика) // Под парусом «Паллады». СПб., 2008. (0,5 п.л.)
9. Лебедева Е.Н. О некоторых аспектах истории развития пословиц и поговорок в японском языке// Русский язык в системе межкультурной коммуникации. Сборник материалов межвузовской научной конференции. – Хабаровск: Изд-во ДВГГУ, 2007.
10. Лебедева Е.Н. Из истории фразеологии японского языка// Актуальные проблемы востоковедения. Сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции. – Хабаровск: Изд-во ДВГГУ, 2008.
11. Левченко Е.Н. О семантике фразеологизмов древнеяпонского языка (на примере фразеологизмов песен «Кодзики»)// LESEWA 2012. Сборник материалов международной конференции по языкам Дальнего Востока, Юго-Восточной Азии и Западной Африки. М.: ИСАА МГУ, 2012.
12. Лаврентьев. «Практическая грамматика японского языка» . 2002.
13. Телия, В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М. Школа «Языки русской культуры», 1996г.



14. Титова, П. А., Малышева Н. В. Соматические фразеологические единицы в восприятии носителей русского, английского и японского языков, Комсомольск-на — Амуре // Advances in current natural sciences, 2012г.
15. Uno Yosikata “Syakai to keigo” 1977.
16. Tanaka Noriko “Nihongo no katakana eigo” 1984
17. Furuta Tosaku “Kogo toiu kotoba” Fukuoka-1982.